

## NOMALARDA GUL VA BULBUL OBRAZI

*Muslima Xolboyeva*

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti*

*Annotasiya.* Ushbu maqolada gul va bulbul obrazi tarixi, nomalarda qo'llanilishi tahlil qilingan. Mumtoz adabiyotda gul va bulbul obrazi paydo bolishi, bu obrazlar orqali ochib beriladigan ma'nolar ko'rib chiqilgan.

*Абстрактный.* В данной статье анализируется история изображения цветка и соловья и его использование в именах. Рассмотрено возникновение образа цветка и соловья в классической литературе, значения, раскрываемые розой и соловьем.

*Abstract.* This article analyzes the history of the image of a flower and a nightingale and its use in names. The emergence of the image of a flower and a nightingale in classical literature, the meanings revealed by a rose and a nightingale are considered.

*Kalit so'zlar :* gul, bulbul, chechak, sanduvach, andalib, oshiq-ma'shuq, ramz. qafas, tabiat tasviri.

*Ключевые слова:* цветок, соловей, оспа, сандувач, андалиб, любовник, символ, клетка, образ природы.

*Key words:* flower, nightingale, pox, sanduvach, andalib, lover, symbol. cage, nature image.

Mumtoz adabiyotda bir-biriga bog'liq badiiy obrazlar mavjud bo'lib, ularning aksari oshiq va ma'shuq timsolini ifodalaydi. Jumladan, sham va parvona, gul va bulbul kabi obrazlar badiiy tasvir vositalari orqali deyarli ko'pgina asarlarda oshiqning holati ya'ni ma'shuqasi oldidagi ovoragarchiliklari-yu, iztiroblarini ochib

beradi. Sharq adabiyotida gul va bulbul ishqning eng muhim timsoli hisoblanadi. Ayniqsa, turkiy adabiyotda bu obrazlar har bir davrda deyarli barcha devonlarda uchraydi va ulardan foydalanish turkiy adabiyotda XIII asrda fors adabiyoti ta'sirida boshlangan deya taxmin qilinadi.

*Otashin gul chunki bulbul kuydurur yuz vajh ila,*

*Ne osig' faryodu afg'on birla ming doston anga. [1,29]*

Dunyo xalqlari adabiyotida tabiat tasviridan keng ko'lamda foydalaniladi. Mumtoz she'riyat ham imkoni boricha atrof-muhitdan ta'sirlanib, undagi mavzularni nazm va nasrga olib kiradi va turli obrazlar motivga aylanishiga sabab bo'ladi. Ijodkorlar o'z tuyg'ularini ifodalash uchun o'z hayotlarida mavjud narsalarga murojaat qiladilar. Gul va bulbul o'rtasidagi ishq mavzusi deyarli bir xil lekin ba'zi bir asarlarda esa bu obrazlar o'z ma'nosida qo'llaniladi. XI asrda yozilgan Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'oti turk" asarida gul va bulbul obrazlari, asosan, bahor tasviri, yoz va qish munozaralarida uchraydi. Mahmud Qoshg'ariy gul so'zi o'rniga turkiy so'z bo'lmish chechak, bulbulning o'rniga esa sanduvach so'zlarini qo'llaydi.

*Qaqlar qamug' kölärdi,*

*Taglar bäsbi ilärdi,*

*Ajun tanî jilirdi,*

*Tötö chëchäk jërkäshör.*

**Tarjima:** Suvlar ko'payib, chuqurlar ko'lga aylandi. Tog' boshlari xayoliy narsa kabi (arang ko'zga) ilashdi. Dunyoning nafasi ilidi, daraxtlar gulladi, yilqilar uyur olishdi. Har xil gullar saf tortdi.[2,189].

Qoshg'ariy ko'klamning ilk kunlarini, tog'larda qorlar erib, suvlar ko'payadigan, atrof-muhit yam-yashil tusga kirishini daraxtlarda gullar ochilishi bilan o'quvchiga yetkazib beradi. Bu o'rinda gul o'zining nafislik, yangilik, bahor elchisi sifatida aks etadi. Bahordan so'ng asta-sekin yoz kirib keladi. Unda esa turli qushlarning vazifalari tasvirlanadi:

*Sëndä qachar sundilach,*

*Mëndä tinar qarg'ilach,*

*Tatlig' oatr sunduvach,*

*Èrkäk tishi uchrashur.*

**Tarjima:** Shoir yoz va qish munozarasini ta'riflaydi. Yoz qishga aytadi: sa'va sendan qochadi, menda qaldirg'och rohatlanadi. Bulbul turli nag'masi bilan sevintiradi. Menda (yozda) erkak va urgochi juftlashadi. [2, 481]

Qoshg'ariy o'z asarida gul va bulbulga ma'lum bir obraz vazifasini yuklamaydi. Aksincha ular qanday bo'lsa, shunday tasvirlaydi. Aynan bunday ko'rinishda adabiy asarga olib kirish "Qutadg'u bilig" asarida ham mavjud. Yusuf Xos Hojib ularni "Bahor tavsifi" bilan bog'liq o'rinda qalamga olib, gul so'zi o'rniga chechak so'zidan foydalanadi. Chechak turkiy so'z bo'lib, Qoshg'ariy ham shu holatda foydalangan.

*Chechaklikda sanvach utar ming unun,*

*O'qir suri ibri tunun ham kukun.*

*Ilik kulmiz o'ynar chechaklar uza,*

*Sig'un, muyg'aq o'ynar, yurir tab keza. [3,147]*

O'sha davr adabiyotlarida gul issiq fasllarda gullovchi, bahor kelganidan darak beruvchi o'simlik bo'lsa, bulbul chiroyli kuylovchi qush sifatida tasvirlangan. Gul va bulbul o'rtasidagi muhabbat mavzusi XIII asrdan fors adabiyoti ta'sirida turkiy adabiyotda qo'llanila boshlangan.

Gul va bulbul obrazi Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asarida badiiy obraz darajasiga ko'tariladi. "Muhabbatnoma"da ular ham irfoniy ham badiiy mazmunga ega bo'lgan baytlarda uchraydi.

*Jahonda saltanatro qul bila xush,*

*Chamanning gullari bulbul bila xush. [4,26]*

Dunyo tarixiga nazar solinsa, ma'lum bir davlat saltanat maqomiga ega bo'lish uchun, yetarlicha bir aholi soniga va o'z shaharlariga ega bo'lishi kerak bo'lgan. Bu shaharlarda qul bozorlari mavjud bo'lgan. Qullarning aksari sotib olinib, saroy xizmatiga yollangan. Aksari yoshligidan o'z mamlakatiga sodiq qilib tarbiyalangan. Mana shunday sodiq qullar bilan saltanat hududlari yanada kengayib borgan. Shuning uchun saltanatda sodiq qullar borligi yaxshi bo'lsa, har bir bog'ning oz

bulbuli bo'lishi kerak. Chunki gullar uning kuylari orqali yanada chiroyli gullaydi.

Avvalo, inson qullik deganda Allohga bo'lgan bandaligini tushunishi kerak. Xorazmiy ana shu bandaligini anglagan holda, Allohni go'zal gulga, o'zini esa uning ishqida yonayotgan bulbul sifatida tasvirlaydi:

*Chechaksen banda sayrar bulbulungdur,  
Necha borincha Xorazmiy qulungdur. [4,27]*

Gul (atirgul) mahbubaning ya'ni sevgilining ramzidir. Mumtoz adabiyotda ko'p o'rinlarda, u Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning ramzi sifatida qo'llaniladi. Bundan tashqari gul o'xshatish vositasi sifatida, qisqa umrga, bahor razmi sifatida esa o'yin-kulgiga ishora qiladi. Rangi, hidi va go'zalligi boshqa gullardan go'zalroq bo'lganligi uchun qon, sharob, olov, otash va ishq-muhabbat kabilarni tasviri uchun ishlatiladi.

“Muhabbatnoma”ga nazira tarzida yozilgan “Latofatnoma” asarida ham gul va bulbul obrazlari qo'llanilgan. Xo'jandiy bu asarda badiiy san'atlardan foydalanadi, shu san'atlardan biri bu tajnisi murakkabdir.

*Jamolingni ko'rub gul g'uncha bo'lg'ay,  
Tor og'zingtek magar gulg'uncha bo'lg'ay. [4,46]*

Yana bu san'atni quyidagi baytlarida ham ko'rishimiz mumkin:

*Yuzungni haq jahon gulzori qildi,  
Yuzungni ko'rdu gul zori qildi. [4,48]*

*Sahar gulg'unchakim olamg'a kuldi,  
Tor og'zingni ko'rub gul g'uncha bo'ldi. [4,55]*

Xo'jandiy gul, gulzor, gulg'uncha so'zlari bilan birgalikda chechak so'zidan hamda bulbul ma'nosini beruvchi andalib so'zlaridan ham foydalanadi.

*Mug'anniy changu barbat soz qilmish,  
Tarannum andalib og'oz qilmish. [4,52]*

Turkiy tilda sanduvach, arab tilida andalib, fors tilida bulbul, shuningdek, hazordoston, shabhiz kabi so'zlar ham bulbul tushunchasini ifodalaydi.

*Jafo haddin oshurma qullaringg'a,  
Chechaksen rahm qil bulbullaringg'a. [4,54]*

Yoki:

*Begim sensiz bu miskin qul ne qilsun,*

*Chechaksiz benavo bulbul ne qilsun.. [4,60]*

Mumtoz adabiyotda ijodkorlar bulbul orqali o'z "men"ini tasvirlagan bo'lib, Sayid Ahmad "Taashshuqnoma" asarida o'zini unga qiyoslaydi:

*Ne bo'ldi ko'zga ilmassen qulungni,*

*Unutting, ey yuzi gul, bulbulingni. [4,141]*

Ayrim ijodkorlar esa o'zini bulbul darajasida emasligini, u kabi iztiroblarga chidash qiyinligi sababli o'zlarini bulbuldan past hisoblaydilar. Yusuf Amiriy "Dahnoma"da quyidagicha yozadi :

*Men ul bulbul emasmen , ey gulandom,*

*Ki bir dam bersangiz topqaymen orom. [4,83]*

Xulosa qilib aytganda , gul va bulbul obrazi asrlar davomida dunyo adabiyotida taraqqiy etib kelgan obrazlardan hisoblanadi. Jumladan, turkiy adabiyotda deyarli barcha shoirlarning she'riyatidan o'rin olgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Alisher Navoiy . Navodir un nihoya. MAT. 20-jildlik. 2-jild. –T.: "Fan", 1987.
2. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. I-III. –T.: "Fan", 1960-1963.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. –T.: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1971.
4. Muborak maktublar. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
5. A.Hojiahmedov. She'r san'atlarini bilasizmi?. –T.: "Sharq", 2001.
6. Rumeysa Özturk. Şiir ve musikide gül ile bülbül. <https://ytb.gov.tr/haberler/siir-ve-musikide-gul-ile-bulbul>, 2023.
7. Osman Kufaci. Necati bey divani'nda bülbüle dair tespitler. Journal of Turkish Language and Literature Volume:5, Issue:4, Autumn 2019, (687-709).
8. <https://www.sabah.com.tr/sozluk/cografya/bulbul-tasavvufta-askta-ve-edebiyatta-bulbul>.